

QO'RIQLASH DEPARTAMENTI BO'LINMALARI XODIMLARINI XIZMATGA JISMONAN TAYYORLASH

S.M.Usmonov

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bo'linmalari xodimlarining jangovar, kasbiy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga yangicha yondashuvlar hamda xodimlarining o'ta muhim toifalangan obyektlarni qo'riqlash, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkleri daxlsizligini ta'minlash, qo'riqdagi obyektlarda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishidagi xizmat vazifalarini bajarishida jismoniy tayyorgarlik va sportning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xodim, harbiy xizmatchi, jangovar, kasbiy va jismoniy tayyorgarlik, qo'riqlash, obyekt.

Mintaqamiz va dunyoning ayrim mamlakatlarida yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat, global xavf-xatarlar, ayniqsa xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi kabi tahdidlar Milliy gvardiya qo'riqlash bo'linmalari xodimlari oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Professional Milliy gvardiya xodimi qo'riqdagi obyektlarda jamoat tartibini saqlash fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mukammal bajarishi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jamiyatda qonun ustuvorligi hamda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda nafaqat kasbiy, balki jangovar va jismoniy jihatdan ham chiniqishi kerak. Chunki Milliy gvardiya xodimi xizmat faoliyati davomida turli ekstremal holatlarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatda u davlat va jamiyat xavfsizligi bilan birga, o'z xavfsizligini ham ta'minlashi, buning uchun zarur maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Jahondagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz, e'tiqod bilan bog'liq ziddiyatlarning kuchayishi, davlatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovut, ishsizlik va kambag'allikning o'sishi, noqonuniy qurol-yarog' savdosi ortishi, transmilliy jinoiy tashkilotlarning faollashuvi natijasida terrorizm, jumladan, suitsidal terrorizmning ko'lami kengayib, insoniyat taraqqiyoti va xavfsizligiga tahdid solayotganligi bois, unga qarshi kurashning xalqaro hamda milliy mexanizmlarini takomillashtirish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda. Xususan, birgina suitsidal terrorizm AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Isroil, Turkiya, Iroq, Pokiston, Afg'oniston va boshqa davlatlarda ko'plab insonlarning hayoti va sog'lig'iga, davlatlar iqtisodiga juda ko'p miqdorda zarar etishiga sabab bo'lmoqda. "suitsidal terrorchilik harakatlari jami terrorchilik hujumlarining 3 % tashkil etib, jami terrorchilik harakatlaridan halok

bo'lganlarning 48 %" aynan yuqoridagi hujumlarga to'g'ri kelmoqda, hamda ushbu holatlarni sodir etishda aholi gavjum bo'ladigan savdo obyektlari, maktablar, masjid, bank, ishlab chiqarish obyektlarida sodir etilmoqda.¹ Bu esa ushbu obyektlarning ishonchli qo'riqlanishida naryadlar faoliyatini samarali tashlik etish mavjud xavflarga qarshi turish uchun xodimlarning jangovar tayyorgarligini takomillashtirilishini talab etadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda inson sha'ni va qadr-qimmatini masalasi juda dolzarb hisoblanib, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida milliy xavfsizlik islohotlari nihoyatda e'tiborli bo'lib, ayniqsa Milliy gvardiya sohasiga doir qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ya'ni bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida fuqarolarning xavfsizliklari, huquq va erkinliklari himoyasi mujassamligi davlatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil borayotganligidan dalolat, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar, Milliy gvardiya va boshqa sohalardagi bir qancha o'zgarishlar, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnini, uning rivojlanishi, aholi xavfsizligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ularning mas'uliyatini oshirish, moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek, xodimlarning jangovar va maxsus tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek ularning xizmat o'tashini tashkil etish, bo'yicha choralar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining zamonaviy tizimida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'shinlari davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, inson va fuqaroning erkinliklari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan huquqlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan davlat harbiy tashkiloti sifatida sezilarli darjada faoliyat olib bormoqda. Shu kabi, mamlakatni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va yangi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini tashkil etishni, shu jumladan, qonuniylik ahvolini tizimli tahlil qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash va hududlarni kompleks xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Qo'riqlash departamenti xodimlarining o'ta muhim toifalangan obyektlarni qo'riqlash, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklari daxlsizligini ta'minlash, qo'riqdagi obyektlarda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishidagi xizmat vazifalarini bajarishida jismoniy tayyorgarlik va sportning o'rnini katta.

¹ Harmon V., Mujkic E., Kaukinen C. and Weir H. *Causes and Explanations of Suicide Terrorism: A Systematic Review*. // *Homeland Security Affairs*, Volume 14 Article 9 (December 2018). P.5. <https://www.hsaj.org/articles/14749>

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda PQ 3413-son "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, shuningdek ichki ishlar organlarida xodimlarning xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy- psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali tashkil etish maqsadida 2022 yil 22 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlarida xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy- psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 383-son buyrug'i qabul qilindi.

"Xodimlar bilan xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun ularni mohirona va samarali harakatlanishga o'rgatish;
- rahbarlarda tezkor-xizmat hamda jangovar faoliyatda qo'l ostidagi xodimlarni boshqarish, o'qitish, tarbiyalash, ko'nikmalarini takomillashtirish;
- xodimlarda mas'uliyat hissini, xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik mahoratni doimiy ravishda oshirib borish;
- jismoniy kuch, maxsus vosita va o'qotar qurollarni qo'llagan holda turli huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha doimiy amaliy mashg'ulotlarni tashkillashtirish;
- xodimlarda jangovar va o'z ixtisosligiga oid boshqa vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan jismoniy sifatlarini talab darajasida saqlab, yanada rivojlantirish va yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalash;
- ruhiy barqarorlikni shakllantirish, ziyraklik, hushyorlik, xotira, tafakkur va boshqa kasbiy-psixologik jarayonlarni rivojlantirish.

Mazkur buyruqqa asosan jismoniy tayyorgarlik – yengil atletika (yugurish), suzish va kuch ishlatish mashqlari va qo'l jangidan iborat bo'lib, barcha xodimlar uchun yil davomida 100 soat xizmat vaqti hisobidan o'tkazilishi belgilangan".

Ichki ishlar organi xodimlari bilan jismoniy tayyorgarlik shaxsiy tarkibning tezkor-xizmat va jangovar vazifalarni bajarishda jismoniy va psixologik shayligini shakllantirish, turli huquqbuzarliklarning profilaktikasida jismoniy kuch ishlatish, kurashning jangovar usullarini va maxsus vositalarni mohirona qo'llash, shuningdek xizmat faoliyati jarayonida yuqori ishchanlikni ta'minlash maqsadida tashkillashtiriladi.

Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

birinchidan, shaxsiy tarkibning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va lozim darajada ushlab turish;

ikkinchidan, shaxsiy tarkibni turli harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, shuningdek ularga haqiqiy jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda kurashning jangovar usullarini qo'llashni o'rgatish;

uchinchidan, shaxsiy tarkibning irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ularning sog'ligini yaxshilash, mustahkamlash hamda yuksak ish qobiliyatlarini shakllantirish;

to'rtinchidan, xodimlarda jangovar va o'z ixtisosligiga oid boshqa vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan jismoniy sifatlarini talab darajasida saqlab, yanada rivojlantirish va yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Ichki ishlar organlarining har bir xodimi jismoniy mashqlar bilan doimiy ravishda shug'ullanishga majbur va uning jismoniy tayyorgarlik darajasi o'rnatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlariga ajratilgan umumiy vaqtning 50% qo'l yangi va qolgan 50% moddiy bazaning sharoitidan kelib chiqib, gimnastika, to'siqlarni oshib o'tish, tezkor harakatlanish va yengil atletika, sport o'yinlari, suzish bo'limlariga taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining 22-moddasi "Jismoniy kuch ishlatish"-deb nomlangan bo'lib, unda;

"Agar kuch ishlatilmaydigan usullar ichki ishlar organi xodimining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlamasa, u quyidagi hollarda shaxsan o'zi yoki bo'linma (guruh) tarkibida jismoniy kuch ishlatish, shu jumladan kurashning jang usullarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi:

- jinoyatlarga va ma'muriy huquqbuzarliklarga chek qo'yish uchun;
- jinoyatlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni eng yaqindagi ichki ishlar organiga yoxud huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib borish va bu shaxslarni ushlab turish uchun;
- ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablariga qarshilik ko'rsatilishini bartaraf etish uchun.

Ichki ishlar organi xodimi ushbu Qonunda maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilishiga ruxsat etilgan hollarda ham jismoniy kuch ishlatish huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi, fuqarolarning yoxud ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, hujum qilganligi hollari mustasno" - deb ko'rsatilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda professional amaliy sportni rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Prezidentimizning 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommaviylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924 –son farmoniga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar saflarida jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish, texnik va amaliy, harbiy- amaliy sport turlarini, shuningdek, yakkakurash sport turlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- harbiy xizmatchilar va maxsus xizmatni o'tayotgan shaxslar o'rtasida ommaviy sport ishlari bo'yicha har yili ko'rik-tanlovlar o'tkazish;

- texnik va amaliy, harbiy-amaliy sport turlarini, shuningdek, yakkakurash sport turlarini rivojlantirish dasturlarini qabul qilish;

- texnik va amaliy, harbiy-amaliy sport turlari, shuningdek, yakkakurash sport turlari bo'yicha idoralararo jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish;

- ta'lim muassasalari tizimida sport turlari bo'yicha fakultativ sinflar va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- sportning texnik va amaliy, harbiy-amaliy turlari, shuningdek, yakkakurash sport turlarini zamonaviy jihozlar va inventar bilan ta'minlash va boshqalar".

Mazkur farmon ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash tizimiga amaliy sport va jangovar sport turlarini yanada kengroq va to'liq joriy etish uchun asos bo'ldi, bu esa kelgusida jismonan chiniqqan xodimlarni huquq-tartibotni saqlash va jinoyatchilarga muvaffaqiyatli qarshi kurashishga tayyorlash imkonini beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri ularning jismoniy tayyorgarligidir, chunki zamonaviy voqelik ulardan nafaqat zamonaviy qurol-yarog', aloqa, transport vositalariga, balki xodimlarni huquqiy va maxsus tayyorlashning samarali tizimiga ega bo'lgan jinoiy dunyoga qarshi turish uchun xodimdan turli favqulotda vaziyatlarga hamisha tayyor turishni talab qiladi.

Ichki ishlar organi xodimlari jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida huquqbuzar shaxslar bilan doimiy ravishda to'qnashadi. Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ichki ishlar organiga olib kelishda, qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va ularni ushlashda, huquqbuzar shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan tan jarohati yetkazilishini oldini olish maqsadida ular doimiy ravishda sportning qo'l jangi hamda jangovar sambo usullari bilan muntazam ravishda shug'ullanib borishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashining yig'ilishidagi ma'ruzasidan. Toshkent. <https://www.Gazeta.uz/10.01.2018>.

2. R.M.Djuraev. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirish. O'RMG HTI Axborotnomasi. -2020.- № 1,- 3 b.

3. S.D.Mamayusupov. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida axloqiy ruhiy ta'minotni tashkillashtirish masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent., 2021, 5 b.

4. А.Ю.Голубенко. Современные способы формирования психологической готовности у военнослужащих Национальной гвардии Республики Узбекистан исходя из специфики служебно-боевых задач. Т.: ВТИ РУ Ахборотнома. 2020. -№ 3 (11),- 209 стр.

5. Jo'rayeva, O. N., & Juraeva, S. N. (2020). Strategies for using alternative assessment methods in language and literature classes. *International Journal of Innovations in Engineering, Research and Technology (IJIERT)*, 141-146.

6. Jo'rayeva, S. N., & Jumayev, S. Q. (2021). Psixologlarning etiket tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi, 1(13), 95-101.

7. Ch.Nasriddinov. Harbiy psixologiya. T., 2004. 126 b.

8. I.X.Arifxodjaeva. III serjantlar tarkibi faoliyatini takomillashtirishning psixologik omillari. Dissert.. psix... fanl...nomzodi. T., 2011.,- B-13.